

UMUMINSONIY QADRIYAT VA QADRIYATLARNING ILMIIY NAZARIY ASOSLARI

SAYDALIYEVA SH.I.

FarDU magistranti.

Shahnoza@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim sanalgan qadriyat tushunchasining kelib chiqishi hamda milliy, umuminsoniy qadriyatlarining ilmiy nazariy asoslariga oid ma'lumotlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, umuminsoniy qadriyat, milliy qadriyat, shaxs qadriyati, jamiyat, insoniylik.

Аннотация: В данной статье исследуются происхождение понятия ценности, которое считается важным для развития человека и общества, а также научно-теоретические основы национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: ценность, общечеловеческая ценность, национальная ценность, индивидуальная ценность, общество, человечество.

Annotation: In this article, the origin of the concept of value, which is considered important for the development of man and society, and the scientific theoretical foundations of national and universal human values are studied.

Keywords: value, universal value, national value, individual value, society, humanity.

Inson va jamiyat taraqqiyoti uchun hammavaqt zarur bo'lgan qadriyat tushunchasining o'ziga xos kelib chiqish tarixi mavjud. Qadriyat asli arabcha so'z bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: "Qadriyat [a.– qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi] Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, mas., erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma'naviy boylıklar va b. qadriyat hisoblanadi"¹. Insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq odamlar narsalarning muayyan qimmatga ega ekanligini, insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishini, biron sohada foydali bo'lishi mumkinligini kashf etganlar. Shu bilan narsalarning qadriyaviy xususiyati ochilgan. Qolaversa, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar va "qadr", "qadrlash", "qadr-qimmat", "qadrshunoslik", "qadriyat" tushunchalariga qiziqish, ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ilmiy tadqiqotlarning obyektı uchun asos bo'ladi.

"Qadriyat" tushunchasi haqida antik davrlardan boshlab turli xil qarashlar yuzaga kela boshlagan. Antik davr mutafakkirlaridan Suqrot, Platon, Aristotel singari olimlar qadriyat tushunchasini turlicha tushunganlar. Jumladan, Suqrot Zenon va stoiklar singari "afzal bo'lgan" narsalarni ya'ni: "Nima foyda keltirsa, u qadriyatdir"² deb hisoblaydi. Ustozlari Suqrot va Aflotun qarashlarini davom ettirgan Arastu ham bu tushunchani quyidagicha izohlaydi: "hayotga, undagi barqarorlikni ta'minlashga, ezgulikka qaratilgan amallar, narsalar qadrlidir"³.

Aristotel baxt-saodatni inson amalga oshiradigan amallar, faoliyatning oxir-natijasi sifatida qaraladigan qadriyat ekanini ta'kidlaydi. "Biz, - deb yozadi u, - barcha narsalarni baxt-saodatga erishmoq uchun qilamiz, buni biz qandaydir baholanadigan va ilohiy narsa deb hisoblaymiz"⁴. Faylasuf talqiniga ko'ra, qadriyat nafaqat ezgulikka, shuningdek, "qalb faoliyati"ga muvofiq kelishi lozim. Shu sababli u baxt-saodatni ilohiy qadriyat sifatida talqin qilganida, uni "qalb, ruh faoliyati bilan bog'liq hodisa" deb ataydi.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild. – Toshkent, 2023. B.19

² Платон. Диалоги. – М.: Мысль, 1986. – Б, 351-352.

³ Афлотун. Қонунлар. Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – Б, 4.

⁴ Аристотель. Сочинение. В четырех томах. Т.4. – М.: Мысль, 1983. – Б, 71.

Shuningdek olim donishmandlikni, bilimga intilishni “o‘z tabiatiga ko‘ra eng ko‘proq qadrli”⁵ narsalar qatoriga kiritadi. Faylasuf qadrli narsalar, qadriyatlar rang-barangligini, bir individga muvofiq kelgan qadriyatlar boshqa individga to‘g‘ri kelmasligini, ijtimoiy voqea va hodisalarni har kim qiziqishi va maqsadlariga muvofiq baholashini, qadrlashini qayd etadi. Ammo ezgu amallar hammaga birdek qadrli ekanini uqtiradi. Boshqacha qilib aytganda, barcha xatti-harakatlar, amallar hayotga xizmat qilishi, uni e‘zozlashi, ulug‘lashiga muvofiq qadrlidir.

Aytish kerakki, “qadr”, “qadriyat” tushunchalari antik davrlarda ma‘lum bir fanning obyektini bo‘lmagan. Shunchaki u davrda qadriyatlarga insonning ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq holda qaralib, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik, xotirjamlik, huzur-halovat, insof, qanoat, hayotni, borliqni ulug‘lash, boshqalarga ko‘rsatiladigan mehr-oqibat kabi tushunchalar bilan, ularning mohiyati to‘g‘ri anglashilgan.

Keyingi davrlarda ham, yangi davr falsafasining asoschilari F.Bekon va R.Dekart asarlarida “qadr” va “qadriyat” tushunchalariga alohida voqelik sifatida qaralmaydi. Fransuz faylasuflari shunchaki “qadr” va “qadriyat” tushunchalarini qo‘llamadilar. Ingliz faylasufi hamda liberalizm asoschisi Jon Lokkning fikriga ko‘ra, inson mehnati bilan yaratilgan narsalar tabiat tomonidan tayyor holatda olingan narsalardan qadrliroqdir. Bu esa, ma‘lum bir ma‘noda inson uchun qadrli bo‘lgan narsalar qadriyat tushunchalarini anglatadi. Yana bir ingliz faylasufi Deyvid Yum esa, “inson ma‘lum bir narsalarni o‘ziga e‘zozli, kerak bo‘lgani uchun yuqori baholashga, ikkinchi narsalarni ko‘p yoki o‘ziga zarur bo‘lmagani uchun qadrlamaslikka moyil” deya izohlaydi. Bundan kelib chiqadiki, qadriyat tushunchasining shakllanishida ham inson manfaatlari qaysidir ma‘noda ustuvorlik qiladi. Qolaversa, D.Yum qadriyatlarni ijobiy yoki salbiy kabi ikkiga ajratadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg‘unlashuvida qism va butun o‘rtasidagi dialektik aloqalar muhim o‘rin tutadi. Qism bilan butun munosabatlariga o‘ziga xos voqelik sifatida qaragan Platon va Aristotel g‘oyalarini Deyvid Yum qadriyatlar misolida davom ettiradi. Uning qarashlariga ko‘ra, ijtimoiy fazilatlar bog‘langan qadriyat asosan insoniyat va jamiyat manfaatlari qaratilgan ezgu niyatlar tuyg‘usidan kelib chiqadi. “Chunki inson yonidagi yaqinlarining farovon yoki faqir yashashiga befarq qaramaydi. Shu nuqtayi nazardan qadriyat kishilarga keltiriladigan baxt, ezgulik, uning aksi, badbaxtlik, yomonlikdir”⁶. Demak, jamiyat, insoniyat manfaatlari bilan uyg‘unlashgan kishilarning baxtli, farovon yashashiga yordam beradigan narsalar, xatti-harakatlar ijobiy qadriyatlardir.

Qadriyatlar falsafasining shakllanishiga nemis faylasufi Immanuel Kant katta hissa qo‘shgan. Faylasuf olim insonga “ichki qadriyat” sifatida qarab, u o‘zining xatti-harakatlari va axloqiy jihatlari orqali haqiqiy ijtimoiy boylik yaratishini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda “ichki qadriyat”ni insonning erki, irodasi, aqlu idroki, ezgu amallari, tabiat qonunlariga itoat etishi, umumiy axloqiy me‘yorlarga muvofiq yashashi, ijtimoiy burchini ado etishi kabi fazilatlar bilan ham bog‘laydi. Bundan anglashiladiki, olim qarashlarida “qadr”, “qimmat” tushunchalarining ijtimoiy-axloqiy voqelikka yaqinlashuvidagi dastlabki ko‘rinishlarini ilgari surgan.

Shuningdek, I.Kant inson xatti-harakatidagi eng yuqori qadriyat bu “burchni anglash tuyg‘usidan tug‘ilgan ezgu ishlardir. Faqat burchni anglash tuyg‘usidan kelib chiqqan inson xatti-harakati haqiqiy axloqiy qadr-qimmatga ega”⁷ deya o‘z g‘oyalarini ilgari suradi.

Yana bir nemis olimi Fridrix Vilgelm Nitsche “Hokimiyatga iroda. Barcha qadriyatlarni qayta baholash tajribasi” deb atalgan asarida G‘arbiy Yevropa falsafasida, tafakkurida XIX asr oxirida yuzaga kelgan tushkunlik va ma‘naviy tanglik, hamda “qadriyat” haqidagi o‘zining nigilistik qarashlarini ifodalaydi.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan anglashiladiki, “qadriyat” haqidagi dastlabki qarashlar antik davrlarga borib taqaladi. Antik davrlardan boshlab to shu kunga qadar Yevropa va jahon falsafasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan barcha faylasuf olimlar jumladan, antik davr mutafakkirlaridan Suqrot, Aflotun,

⁵ Аристотель. Сочинение. В четырех томах. Т.4. – М.: Мысль, 1983. – Б. 179.

⁶ Юм Д. Сочинения в двух томах. Т 2. – М.: Мысль, 1966, – Б. 272-273.

⁷ Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Часть 1. – М.: Мысль, 1966. – С. 277-278.

Aristotel, keyingi davr fransuz faylasuflaridan F.Bekon, R.Dekart, ingliz olimlari Jon Lokk, David Yum, nemis faylasuflari I.Kant, F.Nitsshelar “qadr”, “qadriyat”, “qadrlil” kabi tushunchalarga murojaat etib, ulardagi ijtimoiy mazmuni, inson hayoti va faoliyatiga aloqador barcha jihatlarini ochib berganlar.

Ushbu maqolamizda shaxs qadriyati, ularning turlari hamda olimlar tomonidan taklif qilingan klassifikatsiyalarini ko‘rib chiqib, umumlashtirishga harakat qildik. Bunda shaxs qadriyatlarini o‘rgangan psixolog olimlarning qilgan ishlari turli mezonlar asosida sinflarga ajratilgan. Xulosa qilib aytganda, milliy, umuminosniy qadriyatlar shaxs ruhiy salomatligi uchun, qolaversa, inson va jamiyatning har jabhasidagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аристотель. Сочинение. В четырех томах. Т.4. – М.: Мысль, 1983.
2. Афлотун. Қонунлар. Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.
3. Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Часть 1. – М.: Мысль, 1966.
4. Платон. Диалоги. – М.: Мысль, 1986.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. To‘rtinchi jild. – Toshkent, 2023.
6. Юм Д. Сочинения в двух томах. Т 2. – М.: Мысль, 1966.